

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR MILLIY
MARKAZI
TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.T.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

KARIMOV JAXONGIR DJUMABOYEVICH

**TAKOMILLASHTIRILGAN URUG’LIK CHIGIT DORILASH USKUNASINI
ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.02.03 – «Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari»

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent viloyati – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
science**

Karimov Jaxongir Djumaboyevich

Takomillashtirilgan urug‘lik chigit dorilash uskunasini ishlab chiqish va
parametrlarini asoslash 3

Каримов Жахонгир Джумабоевич

Разработка усовершенствованной установки для протравливания
посевных семян хлопчатника и обоснование её параметров..... 23

Karimov Jaxongir Djumaboyevich

Development of an improved seed cotton treatment machine and
justification of its parameters..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALAR MILLIY
MARKAZI
TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.T.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

KARIMOV JAXONGIR DJUMABOYEVICH

**TAKOMILLASHTIRILGAN URUG’LIK CHIGIT DORILASH USKUNASINI
ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.02.03 – «Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari»

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent viloyati – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4 PhD/T6178 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.teiti.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mo'minov Mansurbek Raximovich

texnika fanlari falsafasi doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Rasulov Ro'zimurod Xasanovich

texnika fanlari doktori, professor

Madraximov Dilshodbek Usupjonovich

texnika fanlari falsafasi doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.T.14.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil 5 avgust soat 17⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUEAITL. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotekhnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 4-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ruyhatdan o'tgan 53-son). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUEAITL. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 22 iyul kuni tarqatildi.

(2026 yil 22 iyul №53 - raqamli reestr bayonnomasi).



O. Jumaniyazov

ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

R.K. Djamolov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy

kengash ilmiy kotibi, t.f.d., prof.

R.Sh. Sulaymanov

ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash huzuridagi

ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon to'qimachilik va yengil sanoatida qo'llaniladigan tabiiy tolalar orasida paxta tolasi asosiy xomashyo sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Paxta xomashyosining miqdor va sifati esa bevosita urug'lik chigit sifat ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham yuqori sifatli va kasalliklarga chidamli urug'lik chigit tayyorlash, uning unuvchanlik ko'rsatkichlarini oshirish va tannarxini kamaytirish bo'yicha texnologiyalarni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, urug'lik chigitni kimyoviy moddalar bilan dorilash jarayonida chigit massasiga mos ravishda ishchi suspenziyani uzatish, chigit yuzasi bo'yicha ishchi suspenziyani bir tekisda taqsimlanishini ta'minlovchi qorishtirish uskunalarini ishlab chiqish orqali urug'lik materiallarni dorilash to'liqligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, chigitni dorilash jarayonida uning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish, resurslar sarfini kamaytirish va tayyor mahsulot tannarxini pasaytirishga qaratilgan energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishga ehtiyoj oshib bormoqda.

Jahonda paxtaga, shuningdek chigitga ishlov berish yangi texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, ularning ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha keng miqiyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan innovatsiyon texnologiyalar asosida urug'lik chigitni tuksizlantirish va dori preparatlari bilan ishlov berish mashinalarining texnologik imkoniyatlarini takomillashtirish, jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni muqobil qiymatlarini aniqlash, nazariy bog'lanishlarini ishlab chiqish, urug'lik chigitni ekishdan oldin ishlov berishning yangi texnika va texnologiyalarini ilmiy asoslash, urug'lik chigit sifat ko'rsatkichlarini tubdan o'zgartirish, yuqori unuvchanlik va kimyoviy preparatlar bilan bir mey'yorda tekis ishlov berish bo'yicha texnik yechimlarni ishlab chiqish muxim ahamiyatga egadir.

Respublikamizda urug'chilik tarmog'ini rivojlantirish, urug'lik chigit tayyorlash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, shu bilan birga, tayyorlanadigan urug'lik materiallarning raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, jumladan "...milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan ¹. Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan, urug'lik chigit tayyorlash texnologik jarayonida dorilashning bir xilligi va to'liqligini oshirish imkonini beruvchi tukli urug'lik chigit uchun dorilagichni ishlab chiqish dolzarb vazifa ekanligini aytib o'tish mumkin.

Shuningdek, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyuldagi PQ-308-son «Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 Farmoni «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»

qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2023-yil 15-dekabrda PQ-391 sonli "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi.

G'oz o'simligidan yuqori sifatli urug'lik chigit etishtirishda agrotexnik tadbirlarni to'g'ri va samarali amalga oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Urug'lik chigit sifatini ta'minlashda uni saralash orqali aralashmalardan tozalash va kimyoviy preparatlar bilan dorilash jarayonlari ham muhim ahamiyatga ega. Sochiluvchan materiallarni gravitasion qorishtirgichlarda sifatli qorishtirish masalasi xalqaro miqyosda qator olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, Bakin M.N., Makarov Yu.I., Sviridov M.M., Malhotra K., Emelin B.N., Kubeev E.I., Bayguskarov M.X. kabi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan to'kiluvchan materiallarni aralashtirish va kimyoviy ishlov berish samaradorligini oshirish yuzasidan muhim ilmiy natijalar olingan.

Mamlakatimizda esa paxta urug'lik chigitini saralash, delinterlash va dorilash texnologiyalari bo'yicha Rakipov V.G., Usmonov V., Qobilov U., Yusubaliyev A., Djamolov R.K., Jurayev R.X., Salaxov I.M., Sabirov Q., Obidov A.A., Akramov A.A. kabi olimlar samarali ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida urug'lik chigit sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator takomillashtirilgan saralash, tuksizlantirish va dorilash texnologik uskunolari ishlab chiqilib, ishlab chiqarishga joriy etilgan.

Mazkur ilmiy-tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan texnologik uskunalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsada, ammo urug'lik chigit massasiga me'yor bo'yicha ishchi suspenziyani uzatish samaradorligini ta'minlash masalalari hamda urug'lik chigitning dorilanish to'liqligini oshiruvchi resurstejamkor uskunalarni ishlab chiqish va ishchi qismlari parametrlarini ilmiy asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy-tadqiqot ishi «Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyatining № ILM-2023012188 sonli "Yangi, istiqbolli va rayonlashtirilgan navlarni sanoatbobliligini o'rganish asosida ulardan olinadigan urug'lik chigitlarni tayyorlovchi texnologik uskunalarning sanoat namunasini yaratish" innovatsion loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tukli urug'lik chigitlarni dorilash jarayonida dori preparati ishchi suspenziyasining chigit yuzasiga bir xilda taqsimlanishini

ta'minlovchi qorishtirgich uskunasining konstruksiyasini ishlab chiqish orqali dorilash samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

dorilash uchun tayyorlangan tukli urug'lik chigitning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

dorilash uskunasini aralashtirgichining takomillashtirilgan konstruksiyasida tukli chigitni aralashtirish jarayonini nazariy jihatdan o'rganish;

qorishtirgichning ishchi organi konstruksiyasini tajriba-sinov asosida o'rganish hamda dorilash jarayonida yuqori to'liqlik va bir xillikni ta'minlaydigan asosiy parametr va ish rejimlarini aniqlash;

ishlab chiqarish sharoitida qorishtirgichning takomillashtirilgan konstruksiyasini sinovdan o'tkazish va uning agroteknik ko'rsatkichlarini baholash;

takomillashtirilgan urug'lik chigit qorishtirgichi konstruksiyasining texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida dorilangan tukli urug'lik chigitning qorishtirish uskunasini tajriba namunasi olingan.

Tadqiqot predmetini qorishtirish uskunasining takomillashtirilgan nusxasini konstruktiv hamda texnologik ko'rsatkichlarini nazariy va tajribaviy tadqiqot usullari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tajribalarda statik va dinamik modellashtirish, ko'p omilli tajribalar, kuzatish, o'lchash, elektron dasturlar yordamida parametrlarni optimallashtirish usullaridan foydalanilgan. Takomillashtirilgan qorishtirish barabanida dorilangan chigitni dorilash to'liqligini aniqlash uchun mavjud ishlab chiqilgan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chigitning fizik-mexanik va texnologik xossalari xamda dorilangan urug'lik chigit sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan texnik talablar asosida tukli urug'lik chigit uchun sakkiz qirrali qorishtirish barabani ichiga qo'shimcha qorishtirgich elementlari qo'llanilgan holda yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

sakkiz qirrali baraban markaziga aylana shaklida quvurlardan yig'ilgan qorishtirgich xamda baraban devoriga turli burchaklarda plankalar o'rnatilib, chigitlarni qorishtirishning radial va bo'ylama oqimlarini yaratadigan va shu bilan konvektiv qorishtirish jarayonini ta'minlaydigan qo'shimcha qorishtirgichlar tavsiya etilgan;

qorishtirgichning aylanish paytida dorilangan tukli chigitning quvurlardan yig'ilgan aylana shaklidagi qo'shimcha qorishtirgichlar bilan o'zaro ta'sir kuchini nazariy qonuniyatlaridan foydalanib, qo'shimcha qorishtirgichlardagi quvurlar diametri, soni va ular orasidagi tirqishlar asoslangan;

nazariy izlanish va tajribalar natijasida ishlab chiqilgan tukli urug'lik chigitni dorilash uchun yangi konstruksiyadagi qorishtirgichning asosiy parametrlaridan plankalar soni, o'rnatilish burchagi, aylana shaklida quvurlardan yig'ilgan qorishtirgich diametri, quvurlar soni, barabanning aylanish tezligi va ish unumdorligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

urug'lik chigitni takomillashtirilgan sakkiz qirrali barabanda samarali qorishtirish texnologiyasi tavsiya etilgan va asoslangan;

qorishtirish barabani ichki yuzasining markaziga aylana shaklida quvurlardan yig'ilgan reshetka va baraban yon devorlariga plankalar o'rnatilishi tavsiya etilgan va reshetka hamda plankalarni parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro mosligi, hisoblashlarda standart usullardan va vositalardan foydalanilganligi hamda takomillashtirilgan sakkiz qirrali qorishtirish barabanining urug'lik chigit tayyorlash korxonasiga joriy etilganda ijobiy natijalar olinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati tukli urug'lik chigitlarni samarali dorilash uchun sakkiz qirrali qorishtirish barabanining yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi. Baraban markaziga quvurlardan yig'ilgan reshetka va yon devorlariga turli burchaklarda o'rnatilgan plankalar yordamida urug' oqimining radial va bo'ylama harakati shakllantirilib, konvektiv aralashtirish jarayoni ilmiy asoslandi. Qo'shimcha qorishtirgichlarning diametri, quvurlar soni va ular orasidagi tirqishlari tahlil asosida optimallashtirildi hamda barabanning asosiy ish rejimlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan yangi konstruksiyadagi qorishtirgich dorilash jarayonida suspenziyaning chigit yuzasiga bir tekis taqsimlanishini ta'minlashi natijasida dorilash samaradorligini oshiradi va suspenziya sarfini kamaytiradi. Tajriba va ishlab chiqarish sinovlari qorishtirgichning yuqori texnik-iqtisodiy samaradorligini ko'rsatdi hamda urug'lik chigit tayyorlash korxonalariga joriy qilishga tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. Urug'lik chigit bilan ishchi suspenziyani qorishtirish barabanini parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan qorishtirgichning ishlab chiqilgan yangi konstruksiyasi Sirdaryo viloyatidagi "Sirdaryo Best Seeds" MChJ ning tukli urug'lik chigit tayyorlash sexining dorilash texnologik jarayoniga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 2-martdagi №05/04-04-241 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tukli chigitning dorilanish to'liqligi 92-95% gacha, urug'lik chigitning unib chiqish ko'rsatkichi 3-5 % gacha oshishiga erishildi va bir tonna tukli urug'lik chigitni dorilash uchun me'yorlangan dori sarfi 7 % tejalishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ishlar chop qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan nashrlarda 5 ta maqolalar, jumladan 3 ta respublika va 2 ta chet el

ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Ishlab chiqilgan yangi konstruksiyadagi qorishtirish barabaniga patent olish uchun FAP 20250226 raqamli talabnoma topshirilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiya ishining kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi qismi «**Urug'lik chigit tayyorlash texnologiyasi va dorilash uskunalarining analitik tahlili**» adabiy manbalarni tahlil qilish va tukli urug'lik chigitni dori suspenziyasi bilan ishlov berish uchun texnika va texnologiyalarning hozirgi holatiga bag'ishlangan. Uzluksiz siklda ishlaydigan barabanli qorishtirgichlar bugungi kunda tukli urug'lik chigitni qorishtirish uchun keng qo'llaniladi, tukli urug'lik chigitining dorilash to'liqligini oshirish maqsadida ularning konstruksiyasi va texnologik xususiyatlarini yaxshilash uchun texnik yechim ishlab chiqildi.

Texnik yechimning mohiyati taklif qilingan sakkiz qirrali qorishtirish barabanining sxemasi tasvirlangan chizma bilan izohlanadi (1-rasm).

Taklif etilgan tukli urug'lik chigitlarni dorilagichi (1-rasm) buker 1, zaslonka 2, yo'naltiruvchi tarnov 3 va 7, dorilash kamerasi 4, forsunka 5, shnek 6, sakkiz qirrali baraban 8, planka 9 va quvurlardan yig'ilgan qo'shimcha qorishtirgich 10 ni o'z ichiga oladi.

Dorilash uskunasi texnologik ish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: urug'lik chigit bunker 1 dan zaslonka 2 yordamida tarnov 3 orqali ishchi suspenziya sepish kamerasi 4 ga uzatilib, forsunka 5 yordamida chigit yuzasiga suspenziya sepiladi. Dori suspenziyasi sepilgan chigit shnek 6 orqali sakkiz qirrali qorishtirish barabani 8 ga tarnov 7 orqali uzatiladi. Sakkiz qirrali silindrsimon baraban 8 da urug'lik chigitlarni yuzasi dori bilan bir hil qoplangunga qadar qorishtiriladi. Baraban 8 ichiga o'rnatilgan planka 9 va quvurlardan yig'ilgan qorishtirgich 10 ishchi suspenziyani chigit yuzasiga bir tekis taqsimlanishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, turli burchaklarda o'rnatilgan planka va qo'shimcha qorishtirgichlar radial va o'q bo'ylab urug'lik chigit oqimlarini yaratadi, shuningdek, quvurlar tirqishlari orasidan urug'larning asta-sekin tushishi bilan intensiv qoplanish va shu bilan konvektiv qorishtirish jarayonini ta'minlaydi. Sakkiz burchakli silindrsimon qorishtirish barabanida qayta ishlangan urug'lik chigit belgilangan tushirish kamerasi orqali o'lchab qadoqlash jarayoniga uzatiladi.



1-rasm. Taklif etilayotgan sakkiz qirrali qorishtirish barabanining umumiy ko'rinishi sxemasi

Quvurlardan yig'ilgan aylana shaklidagi qo'shimcha qorishtirgich sakkiz qirrali qorishtiruvchi baraban o'qi markaziga o'rnatiladi, baraban aylanish paytida yon devorlarga o'rnatilgan plankalar yordamida chigitlar yuqoriga ko'tarilib quvurlardan yig'ilgan qo'shimcha qorishtirgichga tashlaydi va dorilangan urug'lik chigitlar asta-sekin quvurlar orasidagi bo'shliqlardan tushadi. Natijada ishchi suspenziyani urug'lik chigit yuzasiga bir tekis taqsimlanishi xisobiga chigitning dorilinish sifatini oshishini ta'minlaydi.

Takomillashtirilgan sakkiz qirrali qorishtirish barabanining taklif qilingan sxemasi asosida o'zgartirilgan parametrlarga ega eksperimental nusxasi tayyorlandi, tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqildi, maqsad va vazifalar aniqlandi.

Dissertatsiya ishining **“Takomillashtirilgan sakkiz qirrali qorishtirish barabanida urug'lik chigitni qorishtirish jarayonini nazariy o'rganish natijalari”** nomli ikkinchi bobida ishlab chiqilgan olti burchakli aralashtiruvchi barabanning asosiy geometrik parametrlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

AB masofaga plankalar ta'sirida tukli chigitlarni uzatishdagi nazariy tahlili keltirilgan. Takomillashgan qorishtirish barabani yordamida tukli chigitlarni dori suspenziyasi bilan qorishtirishdagi harakati keltirilgan. Bunda qiya joylashgan plankalar ta'sirida tukli chigitlarni plankalar ta'sirida ilib olish nuqtasini A deb uzatish nuqtasini B deb tanlab olingan. Shu oraliq masofasini $AB = S$ qabul qilingan. Chigit oqim sarfini to'g'ri yo'naltirishda plakaning og'ish burchagini- α va qorishtirish baraban burchak tezligini- ω uzluksiz ta'minlash masalasi tahlil qilingan. $S(t)$ - AB masofa bo'ylab tukli chigitlarni vaqt bo'yicha uzatish oraliq'i, $\vartheta(t) = \frac{dS}{dt}$ - tezligi, ω -qorishtirish barabanning aylanish tezligi.

Aylanma harakatdagi tukli chigitlarni plankalar sirtidagi harakat differensial tenglamasini tuzamiz:

$$m \cdot \frac{d^2S}{dt^2} = m \cdot \omega^2 \cdot R \cdot \cos \theta - m \cdot g \cdot \sin \theta \quad (1)$$

bu yerda R -baraban radiusi , θ -qamrash burchagi , $\theta = \omega \cdot t$

Shunday qilib (1) tenglamani hisoblaymiz

$$\frac{d^2S}{dt^2} = \omega^2 \cdot R \cdot \cos(\omega \cdot t) - g \cdot \sin(\omega \cdot t)$$


$$\vartheta(t) = \frac{dS}{dt} = \int_0^t (\omega^2 \cdot R \cdot \cos(\omega \cdot t) - g \cdot \sin(\omega \cdot t)) \cdot dt$$

$$\vartheta(t) = \omega \cdot R \cdot \sin(\omega \cdot t) - \frac{g}{\omega} \cdot (1 - \cos(\omega \cdot t)) \quad (2)$$


(2) tenglikdan vaqt bo'yicha integrallab urug'lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabanidagi plankalar sirti bo'yicha harakat tenglamasi aniqlaymiz:

$$S(t) = R \cdot (1 - \cos(\omega \cdot t)) + \frac{g}{\omega} \cdot (t - \frac{\sin(\omega \cdot t)}{\omega}) \quad (3)$$

(3) tenglik plankalarda tukli chigitlarni uzatishdagi harakat tenglamasini ifodalaydi. Bu tenglikdan tukli chigitlarni qorishtirish barabanda plankalar ta'sirida uzatish $0 < \theta < \pi$ oraliqdagi harakatini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlillari keltirilgan. Hisoblashlarda quyidagi parametrlarning son qiymatlari tanlangan $R = 600 \text{ mm}$; $L=2000 \text{ mm}$; $g = \frac{9.81 \text{ m}}{\text{s}^2}$; $\omega = 8 - 12 \text{ min}^{-1}$.



1-tukli chigit, 2-planka, 3-qorishtirish barabani
2-rasm. Tukli chigitlarni qorishtirish barabanidagi harakat sxemasi




3-rasm. Tukli chigitlarni plankalar ta'sirida uzatish sxemasi

Tukli chigitlarni plankalar ta'sirida uzatishda masofasini $\overline{AB} = S$ qabul qilingan va bu masofani quyidagicha aniqlaymiz.

$$S = R \cdot \theta = 0,6 \cdot 3,14 = 1,9 \text{ m} = 1900 \text{ mm}$$

AB masofasi 1900 mm ekanligini hisobga olgan holda tukli chigitlarni plankalar ta'sirida shu masofaga uzluksiz uzatishni ta'minlashda qorishtirish barabanining burchak tezligini plankaning qiyalik burchaklarini to'g'ri tanlash masalasi ko'rilgan.

Xulosa: Yuqoridagi grafikdan shuni ta'kidlash mumkinki tukli chigitlarni plankalar ta'sirida uzatishda oraliq masofasi $S=1900 \text{ mm}$ ekanligidan va bu masofaga bir tekisda uzluksiz ta'minlashda urug'lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish



4-rasm. Tukli chigitlarni plankalar bilan uzatishda qorishtirish barabanining aylanish tezliklarini turli xil $\omega_1=8 \text{ min}^{-1}$, $\omega_2=10 \text{ min}^{-1}$, $\omega_3=12 \text{ min}^{-1}$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi


barabanining aylanish tezligini $\omega_2=10 \text{ min}^{-1}$ qiymatida etarli ekanini traektoriyalar orqali ko'rishimiz mumkin.

Urug'lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabanidagi o'rnatilgan plankalarning sirtidagi harakatlanayotgan tukli chigitlarni plankalardan uzatish jarayonini tashqi kuchlar ta'siridagi harakati tahlili keltirilgan.

$A\tilde{B} = S$ yoy bo'ylab tukli chigitlarni uzatishdagi jarayonni ko'rib chiqamiz m -tukli chigit massasi, R -qorishtirish barabani radiusi, mg -og'irlik kuchi, N -normal bosim kuchi, F_{ish} -planka sirtidagi tukli chigitning ishqalanish kuchi, F_{mk} -tukli chigitning markazdan qochma kuchi.

Tukli chigitlarning planka sirtidan ajralib chiqishdagi normal bosim kuchiga bog'liqlik shartidan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun tukli chigitning planka sirtidan tushib ketishi uchun $N > 0$ shart bajarilishi kerak bundan

$$N = m \cdot g \cdot \cos(\theta - \alpha) - m \cdot \omega^2 \cdot R \cdot \sin(\theta - \alpha) \quad (4)$$



5-rasm. Tukli chigitlarga planka sirtida ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar sxemasi

Yuqoridagi tushib ketish shartidan foydalanib (4) tenglikdan plankaning og'ish burchagini tanlashdagi qiyalik burchagiga bog'liqlik ifodasini aniqlaymiz:

$$m \cdot g \cdot \cos(\theta - \alpha) - m \cdot \omega^2 \cdot R \cdot \sin(\theta - \alpha) = 0$$

$$\text{tg}(\theta - \alpha) = \frac{g}{\omega^2 \cdot R} \quad (5)$$


(5) tenglikdan foydalanib plankaning og'ish burchagini barabanning burchak tezligiga hamda uzatishdagi qamrash burchagiga bog'liqlik ifodasidan foydalanib grafiklarini Maple dasturidan foydalanib tahlil qilamiz.

Xulosa qilib aytganda tukli chigitlarni planka sirtidan bir tekisda uzatishda qamrash burchagi bo'yicha harakatining traektoriyalari keltirilgan plankaning qiyalik burchagini $\alpha = 68^\circ$ yoki radian qiymati $\alpha = 1,2 \text{ rad}$ ekanligidan tukli chigitlarning planka sirtidan ajralishda baraban aylanish tezligining $\omega_2=10 \text{ min}^{-1}$ qiymatida $A\tilde{B} = S$ yoy bo'ylab uzluksiz uzatilishini traektoriyalarida ko'rishimiz mumkin.

Keyingi navbatda tukli chigitlarning planka sirtidagi harakatini planka uzunligi bo'yicha tahlili keltirilgan bo'lib (5-rasm), tukli chigitlarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlardan foydalanib harakat differensial tenglamasini tuzamiz. $G = mg$ og'irlik

kuchi, N - normal bosim kuchi, $F_{ish} = f \cdot N$ planka sirtidagi tukli chigitning ishqalanish kuchi, $F_{mk} = m \cdot \omega^2 \cdot R$ tukli chigitning markazdan qochma kuchi, $L(t)$ - planka sirti bo'ylab uzatilishdagi o'zgarishi $\alpha = 60^0 \div 68^0$ plankalarning qiyalik burchagi.

$$m \cdot \ddot{L} = G + F_{mk} + F_{ish} \quad (6)$$




6-rasm. Tukli chigitlarni planka og'ish burchagi bo'yicha uzatishda qorishtirish barabanining burchak tezliklarini turli xil $\omega_1=8 \text{ min}^{-1}$, $\omega_2=10 \text{ min}^{-1}$, $\omega_3=12 \text{ min}^{-1}$ qiymatlarida qamrash burchagi bo'yicha o'zgarish grafigi


Bu tashqi kuchlarni (6) tenglikka qo'yib planka yuzasidagi tukli chigitlarni harakatini aniqlaymiz:

$$L = -\frac{k_1}{\omega^2} \cdot \sin(\omega \cdot t) - \frac{k_2}{\omega^2} \cdot \cos(\omega \cdot t) + \frac{k_1}{\omega} \cdot t + \frac{k_2}{\omega^2} \quad (7)$$

(7) tenglikdan foydalanib tukli chigitlarni planka sirti bo'ylab harakatini qorishtirish barabani burchak tezligiga plankaning og'ish burchagiga bog'liqlik ifodasidan Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlillarini keltiramiz.




7-rasm. Tukli chigitlarni planka sirtidagi harakatini qorishtirish barabanining aylanish tezliklarini turli xil $\omega_1=8 \text{ min}^{-1}$, $\omega_2=10 \text{ min}^{-1}$, $\omega_3=12 \text{ min}^{-1}$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi



8-rasm. Tukli chigitlarni planka sirtidagi harakatini plankaning og'ish burchagini turli xil $\alpha_1 = 60^0$; $\alpha_2 = 68^0$; $\alpha_3 = 76^0$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi

Qiya joylashgan sakkiz qirrali urug'lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabanida tukli chigit oqimiga ta'siri natijasidagi uzluksizligini ta'minlashda ishqalanish kuchi hamda qarshilik kuchlarini ta'siri natijasidagi harakati keltirilgan (9-rasm).




9-rasm. Qiya joylashgan qorishtirish barabandan tukli chigit oqimining tashqi kuchlar ta'siridagi harakat sxemasi

Qiya joylashgan qorishtirish barabanidan tukli chigit oqimiga uzatishda tashqi kuchlar ta'siridagi harakat differensial tenglamasini tuzamiz.


Ifodalardan foydalanib, tukli chigit oqiminiga ta'sir qiluvchi normal bosim kuchlari hamda qarshilik kuchini qorishtirish barabanining qiyalik burchaklariga hamda ishqalanish koefitsientlariga bog'liqlik ifodasini hosil qilamiz.

$$N_1 = \frac{m \cdot g \cdot (1 - f_1 \cdot f_2 \cdot \cos \alpha)}{f_1^2 (1 - \cos \alpha)}, \quad R = \frac{m \cdot g \cdot f_1 \cdot (\sin \alpha - 1)}{f_1^2 \cdot (\sin \alpha - \cos \alpha)} \quad (8)$$

(8) tengliklardan qiya joylashgan qorishtirish barabanlar ta'siridagi normal bosim kuchlari va qarshilik kuchini og'ish burchagiga va ishqalanish koefitsientlariga hamda tukli chigit oqiminiga massasiga bog'liqlik ifodalaridan foydalanib tashqi kuchlarni ta'siri natijasidagi grafiklarini Maple dasturidan foydalanib tahlillari keltirilgan.




10-rasm. Tukli chigit oqimini qiya joylashgan qorishtirish barabandagi harakatini normal bosim kuchining ta'sirini og'ish burchaklarini turli xil qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi



11-rasm Tukli chigit oqimini qiya joylashgan qorishtirish barabandagi harakatini qarshilik kuchining ta'sirini og'ish burchaklarini turli xil $\alpha_1 = 15^\circ$ $\alpha_2 = 10^\circ$ $\alpha_3 = 5^\circ$ qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi grafiklardan tukli chigit oqimining qiya joylashgan qorishtirish barabandagi harakatini natijasidagi normal bosim kuchi hamda qarshilik kuchlarini o'zgarishi keltirilgan bo'lib, bunda qiya joylashgan qorishtirish barabandagi harakatini gorizontga nisbatan $\alpha_2 = 5^0$ gradusda joylashishi orqali tukli chigit oqimiga ta'sir qiluvchi normal bosim kuchigi bir tekisda oshishi hamda qarshilik kuchini bir tekisda kamayishi tukli chigit oqimiga yoyilib harakati natijasida urug'lik chigit bilan dori suspenziyasini qorishtirish samaradorligini oshirishga imkon beradi.



12-rasm. Tukli chigit oqimining trubali qorishtirgichiga tushishdagi yoy bo'ylab harakat sxemasi

Tukli chigit oqimining o'rnatilgan yo'naltirgichdagi truba qorishtirgichiga tushishdagi harakati differensial tenglamasining 12-rasmdagi AB va BC uchastkalarda ifodalaymiz. Tukli chigit oqimining ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar sxemasi keltirilgan.

Tukli chigit oqimining truba qorishtirgichiga tushishdagi yoy bo'ylab o'rnatilgan tukli chigit oqimining harakat differensial tenglamasini ifodalaymiz:

$$\begin{cases} m \frac{dv_r}{dt} = mg \cos \left(\frac{\pi}{2} - \gamma \right) - F_{ishk} \\ m \frac{v^2}{R} = N + mg \cos \gamma \end{cases} \quad (9)$$

(9) tenglamalardan tukli chigit oqimining trubali qorishtirgichiga tushishdagi yuzasiga normal bosim kuchini aniqlaymiz.

$$\begin{cases} mR\ddot{\phi} = mg \sin \gamma - f \cdot N \\ m \frac{v^2}{R} = N + mg \cos \gamma \end{cases} \quad (10)$$

(10) tenglamadan urinma bo'ylab harakatlanayotgan tukli chigit oqimining, urinma tezligini yechimini aniqlaymiz:

$$R\ddot{\phi} = g \cos(\alpha - \phi) - \frac{fN}{m} \cdot d\phi$$

$$\ddot{\phi} d\phi = \frac{d\dot{\phi}}{dt} \cdot d\phi = \dot{\phi} d\dot{\phi}$$

bundan,

$$\frac{\dot{\phi}^2}{2} = \frac{g}{R} \sin(\alpha - \phi) - \frac{fN}{m} \cdot \phi + C_1 \quad (11)$$

Boshlang'ich shartdan foydalanib, C_1 o'zgarimas qiymatini aniqlaymiz:

$$\phi = 0 \quad \dot{\phi} = \frac{v_1}{R} = \frac{1}{R} \sqrt{\frac{d}{k} \left(e^{\frac{2kS_1}{m}} - 1 \right)}$$

(11) tenglikka qo'yamiz:

$$\frac{d}{2R^2k} \left(e^{\frac{2kS_1}{m}} - 1 \right) = \frac{g}{R} + S_1$$

$$\frac{\dot{\varphi}^2}{2} = \frac{g}{R} \sin(\alpha - \varphi) - \frac{tN}{m} \cdot \varphi + \frac{d}{2R^2k} \left(e^{\frac{2kS_1}{m}} - 1 \right) - \frac{g}{R}$$


$$v_\tau = R \cdot \dot{\varphi} = \sqrt{2gR \sin(\alpha - \varphi) - 2 \cdot \frac{fN}{m} \cdot R^2 \varphi + \frac{d}{k} \left(e^{\frac{2kS_1}{m}} - 1 \right) - 2gR} \quad (12)$$

Бу ердан:

$$N_B = \frac{m}{R} \cdot \frac{d}{k} \left(e^{\frac{2kS_1}{m}} - 1 \right) - mg \sin \alpha \quad (13)$$

(13) tenglama BC yoy bo'ylab chigit oqimining B nuqtadagi bosim kuchini ifodalaydi.

Dissertatsiya ishining «**Qorishtirish barabanining maqbul parametrlarini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqot ishlar natijalari**» nomli uchinchi bobida tajriba tadqiqot ishlarining olib borish uchun maxsus ishlab chiqilgan usullar, shuningdek ishlab chiqilgan sakkiz qirrali qorishtirish barabanining maqbul o'lchamlari va ish rejimlarini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari bayon qilingan.



13-rasm. Takomillashtirilgan qorishtirish barabanini ichki ko'rinishi yoy bo'ylab harakat sxemasi

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun mexanika korxonasida sakkiz qirrali urug'lik chigitni dori suspenziyasi bilan qorishtirish barabanining tajriba namunasi va uni konstruksiyasini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi.

Urug'lik chigit yuzasida dori preparatining ishchi suspenziyasini bir xilda va to'liq qoplanishini ta'minlash uchun sakkiz qirrali qorishtirish barabanining gorizontaal o'qqa nisbatan o'rnatilish burchagiga qarab qorishtirish vaqtini hamda barabanning haqiqiy chigit o'tkazuvchanligini aniqlash uchun eksperimental tadqiqot ishlari bajarildi. O'tkazilgan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Olingan tajriba natijalaridan ko'rinadiki (1-jadval), sakkiz qirrali qorishtirish barabanining aylanish chastotasini 8 min⁻¹ ga sozlanib, sakkiz qirrali qorishtirish barabanining gorizontaal tekislikka nisbatan o'rnatilish burchagini 1,0 gradusdan

3,0 gradusgacha o'zgarganda, urug'lik chigitni soatiga 4 tonna ish unumdorligida dorilash uchun qorishtirishga vaqt yetarli bo'lmadi. Qorishtirish barabani ichida urug'lik chigitning bir oz miqdorda to'planishi yuzaga keldi, baraban o'tkazuvchanligi dozator ish unumdorligidan kamligi ko'rildi.

Qorishtirish barabanining aylanish tezligini 10 min⁻¹ ga, sakkiz qirrali aralashtirish barabanining gorizontaal tekislikka nisbatan qiyalik burchagi 2,0 gradusga o'rnatilganda, urug'lik chigitni suspenziya bilan qorishtirish davomiyligi 98 sekundni tashkil etib, barabandagi urug'lik chigitlarning qorishtirish vaqti va barabanga urug'lik chigitlarni uzatib berish vaqtlari bir biriga mos kelishi


ko'rildi. Ushbu parametrlarda oldimizga qo'yilgan maqsad ya'ni qo'shimcha aralashtirgich va baraban devori bilan chigitlar samarali ta'sirlashishi qorishtirish davomiyligi 98 sekundga teng bo'lganda erishildi.

1-jadval


Qorishtirish barabanining aylanish tezligi va uni gorizontal o'qqa nisbatan o'rnatish burchagining barabandagi chigitning qorishtirish vaqti va chigit o'tkazuvchanligiga ta'siri

Sakkiz qirrali qorishtirish barabanining aylanish tezligi, min^{-1}	Gorizontal o'qqa nisbatan o'rnatilgan burchakning ta'siri					
	Baraban ichida chigitning qorishish vaqti, sekund			Barabanning chigit o'tkazish unumdorligi, t/h		
	1,0°	2,0°	3,0°	1,0°	2,0°	3,0°
8	169	139	104	3,2	3,4	3,8
10	125	98	75	3,7	4,0	4,15
12	102	82	62	3,8	4,5	4,8

Qorishtirish barabanining ish unumdorligi va urug'lik chigitni qorishtirish vaqtini aniqlash bo'yicha olib borilgan tajriba ishlarida, sakkiz qirrali qorishtirish barabaniga dorilangan urug'lik chigitni uzatish unumdorligi soatiga 4 tonna miqdorida uzatish orqali amalga oshirildi. Tajriba o'tkazish jarayonida sakkiz qirrali qorishtirish barabanining xaqiqiy ish unumdorligini aniqlash uchun qorishtirish barabanining chiqish qismidan chiqqan chigitlarni tortish orqali aniqlandi.



Qorishtirish barabanining aylanish tezligi
8 min^{-1}



Qorishtirish barabanining aylanish tezligi
10 min^{-1}

